

LAVANDULA ANGUSTIFOLIA MILL O‘SIMLIGINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA KO‘PAYTIRISH TEXNOLOGIYASI

J.Aqseytov, K.Makulbaev

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya. Maqolada Iyun oyining o‘rtalarida dastlabki I tartibli novdalar hosil bo‘ladi va ularning soni o‘rtacha $3,4 \pm 0,68$ ta ga etadi. I tartibli novdalarning o‘zunligi $6,7 \pm 0,93$ sm va ulardagi barglar soni $4,2 \pm 0,02$ ta ni tashkil etgan. Ikkinchi vegetatsiya yilida esa, o‘simliklarning o‘sinh sur‘ati jadallashadi. Vegetatsiyaning dastlabki davridanoq har bir tup o‘simlikda o‘rtacha 2,3-3,7 ta asosiy poyalari hosil bo‘lib, may oyida asosiy poyalarda I tartibli novdalar va iyun oyining oxirida II tartibli novdalar hosil bo‘ladi. Ikkinchi vegetatsiya yilida *Lavandula angustifolia* ning asosiy poyalari o‘rtacha $56,0 \pm 2,50$ sm ga o‘sadi va ularda $18,8 \pm 2,31$ ta barglar shakllanadi. Asosiy poyalari $13,2 \pm 0,83$ sm yog‘ochlanadi va $9,0 \pm 1,30$ ta barglar to‘kiladi. Shuningdek, $9,8 \pm 1,28$ ta II tartibli novdalar hosil bo‘lib, o‘rtacha $11,0 \pm 1,75$ sm ga o‘sadi. I-tartibli novdalarda esa, o‘rtacha $4,4 \pm 0,75$ ta 2-tartibli novdalar hosil bo‘lib, ularning o‘zunligi $5,8 \pm 0,78$ sm ni tashkil etishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar. *Lavandula angustifolia* Mill., vegetatsiya, novdalar, efir moylari, ildizlanish, xom-ashyo, oziq-ovqat sanoati va b.q.

So‘ngi yillarda respublikamizda an’anaviy va noan’anaviy dorivor o‘simliklarni ko‘paytirish va plantatsiyalarini tashkil etishga alohida e’tibor berilmoqda. Hozirgi zamon tibbiyoti, parfyumeriya va oziq-ovqat sanoatining ehtiyoji efir moyli o‘simliklarni etishtirishga va ularni xom-ashyosini yaratishni talab etmoqda. Shu sababli, keyingi yillarda introdutsent dorivor o‘simliklarni respublikamiz tuproq sharoitida ko‘paytirish va xom-ashyo bazasini yaratish sohasida keng masshtabda ishlar davom etmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekiston mustaqillik davrida shahar va qishloqlarini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari muhim davlat tadbirlaridan hisoblanib, u xalqni yashash sharoitlarini tubdan o‘zgartirishga qaratilgandir.

Respublikamiz farmatsevtika sanoatini dorivor o‘simliklar xom ashyosiga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va yangi keng qamrovli istiqbolli turlarini assortimentini ko‘paytirish davr talabi bo‘lib qolmoqda. Ayni paytda O‘zbekiston farmatsevtika,

parfyumeriya, kosmetika, oziq-ovqat sanoatlari hamda ko'kalamzorlashtirish va obodlashtirish sohasiga yangi istiqbolli o'simliklarni tatbiq etish davr talabi.

Introdutsent istiqbolli va kelajakda keng masshtabli plantatsiyalari rejalashtirilgan dorivor va manzarali o'simliklar toifasiga lavanda o'simligi ham kiritilgan bo'lib, respublikamiz florasida tabiiy holda uchramaydi. Introduktsiya qilingan turlari Respublikamizning iqlim va tuproq sharoitlariga yaxshi moslasha oladi va o'stirish uchun tavsiya etsa bo'ladi. Respublikamizda lavanda o'simligi qisman tarqalgan, xavaskor bog'bonlar tomonidan manzarali usimlik sifatida o'stirilmoqda. Lavanda dorivor o'simlik sifatida ham keng foydalaniladi, uning gullari va efir moylari antiseptik-bakteritsid vosita sifatida rasmiy tabobatda keng qo'llaniladi.

Farmatsevtika, parfyumeriya, oziq-ovqat sanoati va ko'kalamzorlashtirish saxalarni rivojlantirishda efir moyli o'simliklar muhim o'rin tutadi. Bular farmatsevtika sohasida turli dori vositalarini, parfyumeriya sohasida-duxu, odekolon va turli xil kremlarni, oziq ovqat manomatida turli xil ziravor qo'shimcha (priprava) larni tayyorlashda, ko'kalamzorlashtirish sohasida esa, chiroyli gullashi, xushbuy xid tarqatishi, uzoq vaqt gullashi va qishda saqlanishi tufayli shahar sayilgohlari, xiyobonlarida landshaft kompozitsiyalari yaratishda qimmatli material hisoblanadilar.

Ana shunday keng qamrovli va istiqbolli dorivor xamdaxushmanzara o'simliklar sirasiga lavanda o'simligini kiritish mumkin. Bu o'simlikni Toshkent vohasi sharoitlaridakeng miqyosda o'stirish uchun mahalliy sharoitlar mos keladi.

Lavanda o'simligi Labguldoshlar (*Labiaceae*) oilasiga mansub bo'lib, O'rta er dengizi mamlakartarida uning 25-30 ga yaqin turilari mavjud.

O'zbekiston florasida lavanda o'simligi tabiiy holda uchramaydi, lekin Botanika bog'ida lavanda turlarini introduktsiya qilish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar va xavaskor bog'bonlar tomonidan o'tkazilgan amaliy ishlar lavanda o'simligini Respublikamizning sug'oriladigan sharoitlarida o'stirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Dorivor lavanda balandligi 30-60 sm (100sm) gacha bo'lgan xushmanzara chalabuta. Lavanda turlari barigini saqlovchi chalabutalar bo'lib, ba'zi turlari doim

yashil hisoblanadi. Gullari gunafsharang, yolg'on spirgisimon to'pgulga yig'ilgan bo'ladi. Har yili uzoq (may-iyul) gullaydi. Shu sababli ham lavanda aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirishda keng qo'llaniladi. Generativ va vegetativ usullar bilan ko'payadi. Qishga va sovuqqa chidamli.

Lavandula angustifolia asosan efir moyli o'simlik hisoblanadi. Uning er ustki hamma a'zolarida efir moyi (lavanda moyi) mavjud: barglarida 0.4%, poyalarida 0.2%, ko'pgana qismi esa gullida 3.5-4.5% uchraydi. Bu efir moylardan parfyumeriya va kosmetika sanoatida turli xil odekolon, duxi, loson, atir sovun va inson terilarini tiklantiruvchi har xil kremlar tayyorlanadi.

Lavandula angustifolia ning dorivorlik xususiyatlari bilan tibbiyot sohasida alohida e'tiborga molik. Gullari va efir moylari antiseptik va sedativ xususiyatga ega. *Lavandula angustifolia* o'simligining efir moylari mikroblarga va bakteroyalarga qarshi (antiseptik) o'ta kuchli vosita sifatida qo'llaniladi.

Bundan tashqari fitochoylar yig'malar tarkibida har-xil kasalliklarini davolashda profilaktika sifatida ishlatiladi. Lavanda kremlari teri kasalliklarini tiklashda ham samarali vosita hisoblanadi. Hozirgi kunda mazkur o'simlik Qrim, Moldaviya va Krasnodar o'lkalarida keng etishtiriladi.

Urug'larning burtish davridagi murtak organlarining o'sishi va rivojlanishi

Ulchash o'tkazilgan vaqt	Uzunligi, mm		
	Murtak	Urug'pallabarg	Gipokotil va ildizcha
13.X	1,3±0,02	0,4+0,01	0,87+0,04
16.X	3,02+0,05	1,03+0,03	2,6+0,03
19.X	6,1+0,24	1,3+0,02	4,8+0,19
22.X	8,8+0,03	2,4+0,02	6,5+0,03
25.X	9,8+0,04	3,06+0,04	6,7+0,3
28.X	9,9+0,02	3,0+0,03	6,9+0,3

Yuqorida ta'kidlab o'tganidek, efir moyli o'simliklar hozirgi kunda malakatimiz ishlab chiqarish sanoatida alohida e'tiborga molik. Toshkent vohasining tuproq-iqlim sharoitida lavandani urug'idan va vegetativ usulda ko'paytirishning bioekologik

xususiyatlarini o'rganish, o'simlikning hamda agrotexnikasini ishlab chiqish uchun *Lavandula angustifolia* ósimligi urug'dan ekilganda urug' unuvchanligi 67% va saqlanish 78% ko'zatildi. Vegetatsiyaning dastlabki davrlarida yosh o'simliklarning o'sishi juda sekin, keyinchalik jadallashadi.

Birinchi vegetatsiya yilida asosiy poyalar $33,0 \pm 2,09$ sm ga o'sib, ularda $12,4 \pm 1,60$ ta barglar hosil bo'ladi. Asosiy poyalar vegetatsiya davomida $8,5 \pm 0,89$ sm yog'ochlanadi va ulardan o'rtacha $3,0 \pm 0,63$ ta barglar to'kiladi.

Iyun oyining o'rtalarida dastlabki I tartibli novdalar hosil bo'ladi va ularning soni o'rtacha $3,4 \pm 0,68$ ta ga etadi. I tartibli novdalarning o'zunligi $6,7 \pm 0,93$ sm va ulardagi barglar soni $4,2 \pm 0,02$ ta ni tashkil etgan. Ikkinchi vegetatsiya yilida esa, o'simliklarning o'sish sur'ati jadallashadi. Vegetatsiyaning dastlabki davridanoq har bir tup o'simlikda o'rtacha 2,3-3,7 ta asosiy poyalar hosil bo'lib, may oyida asosiy poyalarda I tartibli novdalar va iyun oyining oxirida II tartibli novdalar hosil bo'ladi. Ikkinchi vegetatsiya yilida *Lavandula angustifolia* ning asosiy poyalari o'rtacha $56,0 \pm 2,50$ sm ga o'sadi va ularda $18,8 \pm 2,31$ ta barglar shakllanadi.

Asosiy poyalar $13,2 \pm 0,83$ sm yog'ochlanadi va $9,0 \pm 1,30$ ta barglar to'kiladi. Shuningdek, $9,8 \pm 1,28$ ta II tartibli novdalar hosil bo'lib, o'rtacha $11,0 \pm 1,75$ sm ga o'sadi. I-tartibli novdalarda esa, o'rtacha $4,4 \pm 0,75$ ta 2-tartibli novdalar hosil bo'lib, ularning o'zunligi $5,8 \pm 0,78$ sm ni tashkil etadi. Adabiyotlardagi ma'lumotlarga ko'ra, *Lavandula angustifolia* намлик ўртача (1,3-1,6%) tuproqlarda jadal o'sadi va rivojlanadi. Ikkinchi vegetatsiya yilida generativ davrga kiradi. O'rtacha namlik tuproqlarda *Lavandula angustifolia* ning o'sish sur'ati Ikkinchi vegetatsiya yilida jadallashadi, lekin ontogenezni to'liq o'tamaydi. O'simliklar birinchi vegetatsiya davomida tashqi ko'rinishidan nimjon bo'lib, keyingi vegetatsiya davomida tuproqlarga moslashadi.

Shunday qilib, mutaxasislarning fikriga qo'shilgan holda, *Lavandula angustifolia* o'rtacha namlik tuproqlarda o'stirish ijobiy natijalar beradi.

Adabiyotlar

1. Murdaxaev Yu. M. Novie dlya spetsializirovannix xozyaystv Uzbekistana lekarstvennie rasteniya. – Tashkent, Uz NIINTI, 1982. –2 s.

2. Pulatova T. P., Xolmatov X. X., Djuraev I. N. Lekarstvennie rasteniya Tashkentskoy oblasti. –Tashkent: Meditsina, 1980. –136 s.

3. Toshmatova N. A. Opit introduksii issopa lekarstvennogo (*Hyssopus officinalis* L.) v Botanicheskom sadu AN UzSSR / Introduktsiya i akklimatizatsiya rasteniy: Sb. nauch. tr. –Tashkent, BS AN UzSSR, 1975. –vip. 12. –S. 76-78.